

O'zbekiston xalqiga murojaat



Qadrli vatandoshlar!

Ma'lumki, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 1992 yil 14 oktyabrdagi rezolyutsiyasiga muvofiq, har yil 3 dekabr sanasi butun dunyoda **Xalqaro nogironlar kuni** sifatida nishonlanib kelmoqda.

Bundan ko'zlangan asosiy maqsad – nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlarini ijtimoiy hayotning barcha sohalarida himoya qilish, ularning muammolariga keng jamoatchilik e'tiborini jalb etishdan iborat.

Ezgulik, mehr-oqibat, insonparvarlik timsoli bo'lgan ushbu ayyomda mamlakatimizdagi **bir millionga yaqin** imkoniyati cheklangan va nogironligi bo'lgan fuqarolarimizga hurmat-ehtirom va ezgu tilaklarimni bildiraman.

Mehr-muruvvatli va bag'rikeng xalqimiz azal-azaldan yordamga muhtoj, imkoniyati cheklangan insonlarga e'tibor va g'amxo'rlik ko'rsatishni jamiyatda tinchlik, do'stlik va hamjihatlikni mustahkamlashga xizmat qiladigan eng muhim qadriyatlardan biri sifatida e'zozlab keladi.

Ana shunday ezgu an'analarimizni bugungi zamon talablari asosida rivojlantirish maqsadida so'nggi yillarda mamlakatimizda **imkoniyati cheklangan fuqarolarimizni qo'llab-quvvatlash, ular uchun zarur barcha sharoitlarni yaratish borasidagi davlat siyosati yangi bosqichga** ko'tarilmoqda.

Buning tasdig'ini "**Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida**"gi **Qonun qabul qilingani, mamlakatimiz Nogironlar huquqlari to'g'risidagi xalqaro konvensiya**ga qo'shilgani, sohada mustahkam qonuniy baza yaratilgani misolida ko'rish mumkin.

Shu asosda imkoniyati cheklangan va nogironligi bo'lgan shaxslarning jamiyatdagi mavjud imkoniyatlardan foydalanish, harakatlanish, sog'liqni saqlash, ta'lim, bandlik, rehabilitatsiya, siyosiy-ijtimoiy hayotda ishtirok etish bilan bog'liq huquqlari ta'minlanmoqda.

Bu borada "**Inson qadri uchun**" tamoyili asosida Yangi O'zbekistonda **inklyuziv rivojlanish, ya'ni aholining barcha qatlamlari uchun teng huquq va imkoniyatlarni ta'minlashga** qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilayotgani muhim rol o'ynamoqda.

Biz ushbu yo'nalişda **nogironligi bo'lgan insonlar – jamiyatning to'laqonli a'zolari, degan**

тамоилга амал qilgan holda izchil ish olib bormoqdamiz.

Chindan ham, biz barpo etayotgan yangi, erkin va demokratik davlatda jamiyatning har bir a'zosi bilim olish, zamonaviy kasb-hunarlarni egallash, o'z iste'dod va qobiliyatini ro'yobga chiqarish, mehnat bilan band bo'lism uchun zarur imkoniyatlarga ega bo'lishi shart.

Biz uchun nogironligi bo'lgan insonlarni ijtimoiy hayotimizning barcha sohalariga jalb etish ustuvor yo'nalish hisoblanadi. Yaqinda bo'lib o'tgan Prezident saylovida shu masalalarga alohida e'tibor qaratilib, nogironligi bo'lgan shaxslar saylov uchastkalariga kelib-ketishlari uchun transport bilan ta'minlangani, Brayl alifbosida saylov byulletenlari tayyorlangani va saylov uchastkalari panduslar bilan jihozlangani ularning siyosiy-ijtimoiy jarayonlarda faol ishtirok etishlarini ta'minlash yo'lida muhim qadam bo'lganini xalqaro va xorijiy kuzatuvchilar ham e'tirof etdilar.

Imkoniyati cheklangan fuqarolar uchun yaratilayotgan sharoitlar haqida gapirganda, so'nggi ikki yilda pensiya va nafaqa oluvchi nogironligi bo'lgan shaxslar soni **100 ming nafarga** ko'payib, ularning miqdori qariyb **2 баробарга** oshirilganini ta'kidlash lozim. Shuningdek, barcha hududlarda "**Saxovat va ko'mak" umummilliylar harakati** doirasida hamda "**temir daftar**", "**ayollar daftari**" va "**yoshlar daftari**"ga kiritilgan imkoniyati cheklangan yurtdoshlarimizga manzilli ijtimoiy yordam ko'rsatish tizimi yo'lga qo'yildi.

Nogironligi bo'lgan shaxslarni hayotga moslashtirish va ijtimoiy reabilitatsiya qilish borasida ham katta ishlar amalga oshirilmoqda. Masalan, keyingi yillarda 27 ta tibbiy-ijtimoiy muassasalar rekonstruksiya qilinib, zamonaviy talablarga mos bo'lgan 1,5 mingta davolash-reabilitatsiya o'rirlari foydalanishga topshirildi.

Ana shunday fuqarolarimizga **bepul beriladigan protez-ortopediya buyumlari va reabilitatsiya texnik восьиталари**нигро'ухати **22 turdan 27 tagacha** ko'paytirildi. Xususan, joriy yilning o'zida nogironligi bo'lgan bolalarning hayot sifatini yaxshilash maqsadida ular byudjet mablag'lari hisobidan qariyb 40 milliard so'mlik protez-ortopediya va reabilitatsiya moslamalari, koxlear implantlar hamda boshqa maxsus buyumlar bilan ta'minlandi.

Bundan tashqari, xalq ta'limi tizimida inkiyuziv ta'limni rivojlantirish dasturini amalga oshirish ishlari boshlandi, 300 dan ortiq maktablarda imkoniyati cheklangan bolalarning bilim olishi uchun sharoitlar yaratildi.

Haqiqiy matonat egasi bo'lgan nogiron yigit-qizlarimizning **jahon maydonlarida yuqori natijalarini qo'lga kiritib, Vatanimiz bayrog'ini baland ko'tarib kelayotganlari barchamizga cheksiz g'ururiftixor bag'ishlaydi**. Jumladan, shu yil Tokioda o'tkazilgan Paralimpiya o'yinlarida O'zbekiston vakillari **8 ta oltin, 5 ta kumush va 6 ta bronza** medallarini qo'lga kiritgani har qanday tahsin va tasanolarga munosibdir.

Ta'kidlash joizki, 3 dekabr sanasi butun dunyoda paralimpiyachilarni sharaflaydigan ayyomga aylanib bormoqda. Shuning uchun ham azmu shijoatli paralimpiyachi sportchilarimizni yana bir bor chin dildan qutlab, ularga xalqaro maydonlarda yuksak cho'qqilarni zabit etishda yangi muvaffaqiyatlar tilab qolaman.

Hayotning boshqa sohalarida ham yuksak marralarni egallashga qodir bo'lgan yoshlarimiz o'z qobiliyat va imkoniyatlarini to'liq namoyon etishi, hayotda o'zining munosib o'mmini topishiga ko'maklashish - bundan buyon ham biz uchun ustuvor vazifa bo'lib qoladi. Shu maqsadda hamda nogironligi bo'lgan shaxslar o'zlarini jamiyatning ajralmas qismi sifatida his etib yashashlari uchun ularga qo'shimcha shart-sharoitlarni yaratishga qaratilgan alohida dastur qabul qilib, uni albatta amalga oshiramiz.

Ushbu dasturning mazmun-mohiyati **Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror rivojlanish maqsadlari** bilan hamohang bo'lib, unda nogironlikni belgilashda tibbiy yondashuvdan ijtimoiy yondashuvga o'tish asosiy vazifa sifatida belgilanadi.

Endi **nogironligi boʻlgan shaxslar** - “muammosi bor insonlar” degan qarashdan voz kechib, ularning imkoniyatini kengaytirish uchun, avvalo, ijtimoiy-iqtisodiy tizimni takomillashtirish yoʼlidan borishimiz zarur.

Shuning uchun dasturda quyidagi masalalarga alohida eʼtibor qaratiladi.

Birinchidan, nogironligi boʻlgan yoshlarga **barcha darajada sifatli taʼlim olishi uchun teng imkoniyatlar yaratiladi**.

Jumladan, kelgusi oʼquv yilidan boshlab alohida taʼlim olishga ehtiyoji bor bolalarning **24 foizi**, 2025 yilda esa **40 foizi oddiy maktablarda** oʼqishi uchun barcha sharoitlar yaratiladi. Shuningdek, **inklyuziv taʼlim**ning resurs markazlari soni **14 баробарга** koʼpayib, 200 tadan oshadi.

Ikkinchidan, nogironligi boʻlgan shaxslarni **kasb-hunarga oʼqitish** va ular uchun **munosib ish oʼrinlarini yaratish** orqali ularning daromadini koʼpaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar yanada kuchaytiriladi. Bu borada ularni zamonaviy kasb-hunarga oʼqitish boʼyicha maxsus dasturlar ishlab chiqiladi.

Shuningdek, har bir inson uchun davlat hisobidan kasb-hunar oʼrganish imkoniyati yaratiladi, shu maqsadda ajratiladigan mablagʼlar 2 barobarga oshiriladi.

Barcha darajadagi davlat idoralariga imkoniyati cheklangan fuqarolarni ular uchun mos keladigan ishga qabul qilishda ustunlik va imtiyoz beriladi.

Bundan tashqari, tadbirkorlarning nogironligi boʻlgan shaxslarni ishga qabul qilish borasidagi tashabbuslari qoʼllab-quvvatlanib, ularni ragʼbatlantirish choralar koʼriladi. Jumladan, bunday tadbirkorlar va ishga qabul qilingan fuqarolarga qoʼshimcha soliq imtiyozlari beriladi va davlat tomonidan subsidiyalar ajratiladi.

Uchinchidan, nogironligi boʻlgan shaxslarning salomatligini asrash, ularga tibbiy xizmatlar koʼrsatish ishlari tizimli ravishda davom ettiriladi.

Nogironligi boʻlgan bolalarni sogʼlomlashtirish uchun Respublika bolalar tibbiy reabilitatsiya markazi va uning hududiy filiallari tashkil etiladi.

Shuningdek, har yili 2 ming nafar bolada tugʼma yurak nuqsoni va bosh miyadagi patologik oʼzgarishlar boʼyicha jarrohlik amaliyotini oʼtkazish belgilanmoqda.

Toʼrtinchidan, imkoniyati cheklangan fuqarolar mamlakatimizning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy hayotida faol qatnashishi uchun “toʼsiqsiz muhit”, yaʼni, qulay sharoit yaratiladi.

Jumladan, yangi barpo etiladigan davlat idoralari binolari, ijtimoiy obʼektlar, bogʼ va parklar, jamoat transportida maxsus infratuzilma yaratish, davlat xizmatlari koʼrsatish tizimini nogironligi boʻlgan shaxslarga moslashtirish boʼyicha choralar koʼriladi, ular uchun maxsus axborot portallari, telekoʼrsatuvalar, adabiyotlar va kutubxonalar soni koʼpaytiriladi.

Mamlakatimizning barcha hududlarida barpo etilayotgan **“Yangi Oʼzbekiston” массивлари**da nogironligi boʻlgan shaxslarga uy-joy sharoitlarini yaxshilash uchun subsidiya va imtiyozli kreditlar beriladi.

Eng muhimi, barcha darajadagi rahbarlar va davlat idoralari masʼullari tomonidan nogironligi boʻlgan shaxslarning muammolarini oʼrganish va hal qilish boʼyicha doimiy muloqot tizimi yoʼlga qoʼyiladi.

Bir fikrni alohida taʼkidlab aytmoqchiman: jamiyatimizning eng ehtiyojmand qatlamlaridan biri boʻlgan nogironlar bilan bogʼliq faoliyatimizni tanqidiy qayta koʼrib chiqar ekanmiz, bu insonlar ham mamlakatimiz fuqarolari, bizning yurtdoshlarimiz ekanini, binobarin, hech qachon oʼzlarini yolgʼiz his etmasliklari, ijtimoiy va iqtisodiy hayotimizda faol ishtirok etishlari uchun bundan buyon ham barcha kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etamiz. Bir soʼz bilan aytganda, Oʼzbekistonda hech kim mehr va eʼtibordan chetda qolmaydi.

Ishonchim komil, 3 dekabr – Xalqaro nogironlar kuni mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotida mustahkam

o'rin egallab, jamiyatimizda ezgulik, mehr-oqibat, gumanizm g'oyalarini yanada chuqr qaror toptirishga xizmat qiladigan muhim sanalardan biri bo'lib qoladi.

Biz bu borada siz, azislarga - ko'pni ko'rgan otaxon va onaxonlarimizga, hurmatli xotin-qizlarimizga, hayotga dadil kirib kelayotgan navqiron yoshlarimizga, doimo ezgu va savob ishlar qilib yashashga intiladigan butun xalqimizga tayanamiz.

Millati, tili va dinidan qat'i nazar, inson qadr-qimmati va sha'nini ulug'lash, har bir fuqaro haqida e'tibor va g'amxo'rlik, mehr-muruvvat, saxovat va olijanoblik biz qurayotgan Yangi O'zbekiston jamiyatining hayot qoidasi bo'lib qoladi.

Barchangizni ana shunday olijanob ishlarda faol ishtirok etishga da'vat etaman.

Chuqr hurmat-ehtirom bilan,

**Shavkat Mirziyoyev,
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti**

Manba